

**O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA QO‘LLANADIGAN  
ZOOLEKSIMALAR**

Mavlanova Gulnigor Baxriddin qizi

Termiz davlat universiteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi

kafedra o‘qituvchisi

Mirzaqobilova Shohista Eshpulot qizi

Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

E-mail: [shoxistashoyimova8@gmail.com](mailto:shoxistashoyimova8@gmail.com)

**Annotasiya:** Maqol-xalq og‘zaki ijodlaridan biri. Maqolni mazmunida hayotiy tajribalar, ularning jamiyatda munosabatini ifodalaydi. Maqolni janri qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz bo‘lishi mumkin. Zoonimlar-hayvon nomlariga bog‘liq bo‘ladi. Zoonimlar til leksikasida asosiy o‘ringa ega bo‘lgan turg‘un birikmalar va antroponimlar tarkibida kelishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Erkak, ayol, zooleksema, zoonim, maqol, ibora.

**Abstract.** A proverb is one of the oral creations of the people. The content of a proverb expresses life experiences. It expresses their attitude to society. The genre of a proverb can be short and concise, figurative and non-figurative. Zoonyms depend on the names of animals. zoonyms can be included in stable compounds and anthroponyms that have a major place in the language lexicon.

**Key words:** Man, Woman, zoolexemes, zoonyms, proverb, expression.

**Аннотация.** Пословица – одно из устных творений народа. Содержание пословицы выражает жизненный опыт. Оно выражает их отношение к обществу. Жанр пословицы может быть кратким и лаконичным, образным и бесобразным. Зоонимы зависят от названий животных. зоонимы могут входить в устойчивые соединения и антропонимы, занимающие основное место в языковом лексиконе.

**Ключевые слова:** Мужчина, Женщина, зоолексемы, зоонимы, пословица, выражение.

Zoonimlar til leksikasida salmoqli o‘rinni egallaydi. "Zoonim" termini tilshunoslikda dastlab XX asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan. Zoonimlar didaktik adabiyot maqollarida insonlar timsolini aks ettirishda qo‘llanilgan. Hayvonlarning nomlanishi (zoonimlar) sz boyligining tarixiy va etnik qalamiga mansub. Kishilar xis-tuyg‘ularini axloq-odobini, tashqi ko‘rinishini, holatini jonzotlarga o‘xshatish va taqqoslash yo‘llari bilan tasvirlab berishadi. Masalan, tulki-ayyor, burgut-kuchli, it-vafodor, qurbaqa-xunuk, echki-mehribon, ayiq-yalqov va hokazo misollarni keltirishimiz mumkin. Biz bu misollardan, echki, tulki kabi hayvonlarni ayollar obrazini va burgut it, ayiq, qurbaqa kabi hayvonlarni erkak obrazi tasvirlanadi. Masalan, Er bolasi-er, sher bolasi-sher, Qizning erkasi-echkining serkasi kabi maqollarda tarbiya va odob-axloq haqida bilishimiz mumkin.

Pashsha bolga yopisha, kampir-cholga bu maqollarda gender xususiyatli tenglik va tengsizlik haqida tasvirlangan. Zooleksimalar turg‘un birikmalar va antroponimlarda qo‘llanilib, o‘zida genderlik xususiyatlarini ifodalaydi. Zooleksimalar maqollarda o‘z o‘rnini egallaydi chunki insonlar bilan hayvonlar doim yonma-yon keladi.

Fikrning subyektivligi va qarashlarning haqiqiylikini ifodalaydigan Zoonim frazeologizmlar

-Pigs might fly if they had wings

-If you sell cow, you will sell The milk too.

Jamoaviylikni ifodalovchi Zoonim frazeologizmlar

-One barking dog sets The whole street barking.

It-o‘zbek tilida ancha ko‘p ishlatiladigan Zoonim hisoblanadi. Buni sababi it doim egasiga vafodor bo‘lgan. Shu sababdan tilimizda it-vafo, xotin-jafo maqoli paydo bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Quyida it -dog zoonimining salbiy emotisyada qo‘llanishini qiyoslaymiz:

**Ingliz tilida:**

**Dog eats dog (it itni yeydi)** it qo‘pol va gapga ko‘nmaydigan fe‘l-atvoriga, bir biri bilan urushib yuradigan kishilarga ishora.

**Barking dogs seldom bite** - Akillagan it tishlamaydi.

Demak, it zoonimi o‘zbek tilidagi olam milliy manzarasida quyidagicha komseptual manzara hosil qiladi:

1. Insonga bo‘lgan munosabati: sadoqat, do‘stlik, ergashish, vafodorlik, holis xizmat,

2. Fe‘li: yuvosh, quturmoq, qopmoq, akkillamoq, irillamoq, to‘satdan tashlanmoq.

3. Yashash tarzi: Chor nochor kun kechirmoq, qiynalmoq.

4. Harakati: Charchamoq, izg‘imoq, sanqimoq, daydimoq, tentiramoq, bo‘kib ichmoq,

5. Odamning itga bo‘lgan munosabati: xor qilmoq, o‘ldirmoq, olib tashlamoq.

Masalan, Ingliz maqollaridan birida:

As clean as a hound's tooth---ovchi itining tishidek yarqiraydi -very clean-juda toza

Bu maqoladagi it, tish, ovchilar, o‘z ma’nosida emas, balki juda toza ma’nosida ishlatilyapti.

Misol tariqasida: The classroom was as clean as a hound's tooth after The students cleaned it.

Talabalar tozalagandan keyin, sinfxona juda toza edi.

Yana bir misolimiz:

-As sick as a dog

Very sick- itdek charchagan

Bu maqolda ma'no itdek kasal. Lekin biz bu maqolni o‘z ma’nosida gaplarda qo‘llay olmaymiz. Bu maqolni itdek charchagan, charchab toliqqan ma’noda ishlatilyapti.

Misol uchun:

My friend was as sick as a dog when he left the restaurant last night

O‘tgan tun restarantdan jo‘nab ketgandan keyin, u itdek charchagan edi..

**Xulosa:** Biz tahlillardan xulosa qilib aytamizki, zoonimlar til leksikasida salmoqli o‘ringa ega. Zoonimlar orqali turli insonlarga tariflar berilishini bilishimiz mumkin. O‘zbek va ingliz tillarining qanchalik so‘z boyligi ko‘p ekanligiga guvohi bo‘lamiz. Zooleksimalarda ma’nolarni qanday qo‘llanyotganiga, uning qaysi hayvon bilan tasvirlayotganiga e’tibor berishimiz mumkin.

#### **Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yhati**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
2. “O‘zbek maqollari ”.
3. O‘zbek tili izohli lug‘ati
4. Enazarov.T, Xusainov.M, Ekimuratova.A. o‘zbek nomshunosligi. Toshkent, 1951.
5. Isokhon, K. (2023, December). THE STRUCTURES OF ENGLISH AND UZBEK SPEECH ETIQUETTE. In Fergana state university conference (pp. 64-64).
6. Isokhon, K. (2023). ORGANIZATION OF ENGLISH SPEECH ETIQUETTE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(10), 62-66.
7. Dushatova, S., & Tursunaliyev, M. (2022). CHET TILLARINI O‘RGANISHNING INSON RIVOJLANISHIGA TASIRI. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 133-138.
8. Dushatova, S., & Azamov, M. (2022, November). SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 6, pp. 89-95).